

**ABU RAYHON BERUNIYNING “HINDISTON” ASARI VA UNDA
OLIMNING HIND FALSAFASI QARASHLARI****Babayeva Zuxra Davronbek qizi***Ma'mun universiteti Tarix kafedrası katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada olim, geograf, kashfiyotchi, matematik va faylasuf allomamiz Abu Rayhon Beruniyning Hindiston asari yozilish tarixi hamda unga dunyo olimlari va mashxur siyosatchilarining bergan baholari qayd etilgan. Shuningdek maqolada qomusiy olimning qadimgi hind (Sanskrit) tilidan olingan mashxur iboralari, hind va yunon falsafasi orasidagi o'xshashliklar hamda farqli jihatlar tahlil qilinadi. Alloma hind xalqi hayotiga shu qadar qiziqib qolganidan xatto hind falsafasini ulardan ham yaxshiroq tasvirlay olgan va uni yunon falasafi bilan taqqoslash orqali o'xshash va farqli jihatlarini tahlil qilgan. Maqolada olimning fikrlaridan parchalar va izohlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Xaritashunos, tamaddun, Sanskrit, suffa, jo'grofiya, astronomiya, ekspeditsiya, muazzam, mifologik, estetik, efi, rishilar, poetik, epos.

Аннотация. В этой статье описывается история написания индийского труда нашего ученого, географа, изобретателя, математика и философа Абу Райхана Беруни, а также оценки, данные ему мировыми учеными и известными политиками. В статье также анализируются известные выражения ученого-энциклопедиста, заимствованные из древнеиндийского (санскритского) языка, сходства и различия между индийской и греческой философией. Ученый настолько заинтересовался жизнью индийского народа, что смог даже лучше описать индийскую философию и проанализировал ее сходства и различия, сравнив ее с греческой философией. В статье приведены отрывки и комментарии из мыслей учёного.

Ключевые слова. Картограф, цивилизация, санскрит, суффа, география, астрономия, экспедиция, muazzam, мифологический, эстетический, эфийский, риши, поэтический, эпос.

Abstract. This article notes the history of writing the Indian work of our scholar, geographer, inventor, mathematician, and philosopher Abu Rayhan Beruni, as well as the assessments given to it by world scholars and famous politicians. The article also analyzes the famous expressions of the encyclopedic scholar from the ancient Indian (Sanskrit) language, the similarities and differences between Indian and Greek philosophy. The scholar became so interested in the life of the Indian people that he was able to describe Indian philosophy even better than them and analyzed its similarities and differences by comparing it with Greek philosophy. The article includes excerpts and comments from the scientist's thoughts.

Keywords. Cartographer, civilization, Sanskrit, suffa, geography, astronomy, expedition, muazzam, mythological, aesthetic, Ethic, rishilar, poetic, epic.

Insoniyat paydo bo'lganidan hozirgi kunga qadar jamiyatni rivojlantirib kelayotgan kuch ilm-fan va olimlar hisoblanadi. Hamma zamonlarda ham ziyoli, ilmiy insonlar qadrlanib kelgan. O'rta asrlar taraqqiyoti tammadduniga tamal toshini qo'ygan Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosi hanuzgacha jahon jamoatchiligini hayratga solishda davom etmoqda. Jahon tarixidagi birinchi hindshunos va geograf olim Abu Rayhon Beruniy bo'lib u yer yuzini tasvirlagan ilk xaritashunos ham edi. Hind zaminida bir necha yil yashab, sanskrit tilini o'rgandi. U Hindiston haqida o'zigacha ma'lum bo'lgan barcha ma'lumotlarni sinchiklab tahlil qiladi va "Hindiston" deb nomlagan qomusiy asar yozadi. Beruniy bu noyob va nodir asarida qadimgi va o'rta asr hind tarixi, falsafasi, dinlari, astronomiyasi, jo'grofiyasi, huquqi, urf-odatlarini haqida qimmatbaho ma'lumotlarni to'liq bayon etadi.

Abu Rayhon Beruniyning "Hindiston" asariga baho bergan hind olimi Hamid Rizo so'zi bilan aytsak, o'rta asr va yangi zamon mualliflaridan hech biri hind madaniyatining chigal masalalarini chuqur ilmiy ruhda tushunishda Abu Rayhon Muhammad Beruniy erishgan yutuqlar darajasiga yeta olmadi. Beruniyning "Hindiston" asari muallifning qadimgi hind madaniyati va faniga qilgan tortig'idan iboratdir[1.35].

Kalkutta universiteti professori S.K. Chatterjining fikricha, Beruniy hind mualliflari tiliga xos bo'lgan xususiyatlarni shunday yaxshi bilganki, hatto bunday kishilarning o'sha til egasi bo'lmish hind xalqi ichidan chiqishi ham kamdan-kam uchraydigan hodisa edi. Milodiy 1040 yillarda madaniyat olamida hind va musulmonlarning madaniy merosini har tomonlama chuqur bilgan faqatgina bir kishi bo'lgan, u ham bo'lsa Abu Rayhon Beruniy edi. Vatandosh, bobokalon buyuk olim Abu Rayhon Beruniy Hindiston, uning aholisi, madaniyati, tili, olimlari bilan bo'lgan munosabatlari fan tarixida alohida bir bobni tashkil etadi. Avvalo, bu qadimiy mamlakatga bag'ishlab u «Hindiston» degan maxsus asar yozgan. Kitobning to'liq nomi: «Kitobi fi tahqiqi molil hind min maqola maqbula fil aql au marzula» (Hindlarga maxsus narsalarni tushuntirish kitobi). Bu asarni olim 1020 yilda yoza boshlab, 1030 yilda nihoyasiga yetkazgan[2.202].

Olimning e'tirof etishiga qaraganda, Hindiston to'g'risida kitob yozish unga juda qiyin bo'lgan. Chunki u qandaydir, bizning tasavvurimizdagi «ekspeditsiyalar» yo'li bilan emas, balki yakka o'zi tekshirish olib borgan. Biroq na vaqtini, na o'zining mablag'ini ayamadan, o'lik tillar jumlasiga kiradigan sanskritda (qadimgi hind tili) yozilgan kitoblarni qidirib topadi. Hind tilini o'rgatadigan kishilarni izlaydi. Bu ishlarning barini muazzam Hindiston va uning xalqiga bo'lgan so'nmas muhabbati tufayli amalga oshirganini Beruniyning o'zi lutfan qayd etib o'tgan[1.36].

Taniqli geograf olim, professor Hamidulla Hasanov Beruniyning xalqparvarligidan, komil ilmiy e'tiqodidan o'rnak olsa arziydi, degan fikrni izhor etarkan, dalil sifatida bu mutafannin (qomusiy) olimning arab, hind, yunon va xorazm fanlarini, madaniyati va tilini birday ulug'laganligi, turli xalq, turli din kishilarini qarindosh, og'a-iniday ko'rganligini alohida qayd etadi. Ulug' Beruniyning ming yillik qanotida bizning davrimizgacha parvoz qilib kelgan mana bu tabbaruk nafasi ayni hikmat emasmi: «Sayyoh olimlar» kitobining muallifi Hamidulla Hasanovdan: «Har bir xalq biron fan yoki amaliyotning taraqqiy etganligi bilan mashhurdir», «boshqa xalqlarni sevishni o'rganmoq istasang, ularning tilini o'rgan, hayot tarzini, odatlarini, tafakkurlarini ehtirom et». Abu Rayhon Beruniyning Hindistonga munosabatida diqqatga molik jihatlar sifatida uning hind tilini maxsus o'rganganligi, hindlarning ilmiy va diniy kitoblari bilan mufassal tanishganligi, hind fuqarosining tafakkur tarzi, urf-odatlarini, e'tiqodi, tarixi bilan shug'ullanganligi va, nihoyat, hind olimlaridan ta'lim olganligini eslatish mumkin. Ayni vaqtda u hindlar orasida ko'p yangiliklar tarqatdi. Avvalo, ular orasida arab, yunon, fors, yahudiy madaniyati va fani yutuqlarini yoydi. «U avvalo hindularning go'yo talabasi, keyinchalik muallimi bo'lgan. Hindularning uni «bepoyon ilm ummoni» deb ataganlari bejiz emas»[1.36].

Abu Rayhon Beruniy sanskrit tilini shu qadar mukammal egallagan ediki, uning asosida ikki tomonlama tarjima amallarini bajargan: bir tomondan, sanskritdan arabchaga kitoblar tarjima qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, Evklid va Ptolomey asarlarini arab tilidan sanskritga ko'chirgan. Bundan ko'rinadiki, Abu Rayhonning mazkur tarjimalarida hind, arab, yunon tillari va ular asosida yaratilgan ilmiy-madaniy meros, turli milliy muhitlar hamda chinakam yuksak umuminsoniy maqsadlar bir-biri bilan chirmashib, payvandlanib ketgan. «Bundan maqsad — bilimlarni tarqatmoq istagim edi», — deydi Beruniy. Yana: «Hindlarning ikki kitobini («San'ya» va «Patanjala») arab tiliga tarjima qilgan edim», «Men Yevklid va Batlimusning «Almajistiy» kitobini hindlar uchun tarjima qilib, ularga astrolyabiya san'atini yozib beraman, hindlar orasida ilm tarqatishga va ularda yo'q ilmni bor qilishga qiziqaman» («Hindiston»)[1.37].

Abu Rayhon Beruniy «Hindiston» kitobining uchunchi bobini «Hindlarning aqliy va hissiy mavjud narsalar haqidagi tushunchalari» deb ataydi. Beruniy hindlarning falsafa ilmiga bunday ta'rifini keltiradi: «Falsafa –mumkin bo'lganicha, Tangriga erishish va qoyil bo'lishdan iboratdir». Shu bobda Beruniy qadimgi yunonlarda borliq olam va odam haqida tasavvufiy qarashlarining qanday kelib chiqqanligi haqida gapiradi. U, tasavvufga doir so'fiya so'zini boshqa olimlar ga nisbatan eng to'g'ri tushuntiradi: «Ba'zilar fikricha,- deydi u,- faqatgina haqiqiy borliq birinchi sababchidir. Chunki u borliqning hech narsaga zotan ehtiyoji yo'q. Boshqalar birinchi sababchiga muhtojlar....So'fiyalar, ya'ni hakimlarning tushunchalari ana shunday. Chunonchi, yunoncha suf (sof) so'zi bizga hikmat demakdir. Shuning uchun

faylasufga «filosufa», ya'ni «hikmatni suyuvchi» deb ism berilgan». Beruniy fikricha, ba'zi musulmon ulamolari bu so'zni (manbaini yaxshiroq tekshirib o'tirmay) so'fiya so'zining istiloh (termin) ekanligini bilmay, tavakkal qilib, so'ffiya so'zi suffadan olingan, payg'ambar davrida sahobalar doimo suhbatlashib o'tiradigan suffa, ya'ni «ahli suffa» so'zi bilan bog'laydilar. Shundan keyin bu so'zni «suf attuyus» (taka juni) so'zidan qisqartirilgan deb tushundilar[3.338].

Beruniy qadimgi yunonlarning borliq hodisalarini va ayrim fozil, yetuk san'at egalarini ilohiylashtirish odatini ham tasavvufiy qarashlar bilan aloqador ekanligini isbotlaydi. Beruniy fikricha, ba'zi insonlar bu dunyodagi hayotida odamlarga ko'p yaxshiliklar qilgani tufayli, o'lganlaridan keyin ularning ruhlari ham yaxshilik qilishni davom ettirgani uchun, odamlar ularning ruhlariga hurmat va ta'zim bildirib, ularning haykallarini yasab, chiroyli maydonlarga o'rnatganlar.

Beruniy «Hindlarning aqliy va xissiy mavjud narsalar haqidagi tushunchalari» haqidagi shu bobda ilmiy tafakkur va diniy, mifologik, estetik tafakkurin ing o'ziga xos qonuniyatlari borligini juda teran tushuntiradi.

Beruniyning «Hindiston» asarida qadimgi hind xalqlarining boy ilmiy, ma'naviy merosida mavjud bo'lgan turli axloqiy ijtimoiy, falsafiy, badiiy, estetik qarashlar butun insoniyat (Gretsiya, Rim, Bobil (Vavilon), Somiriylar (Shumerlar), Kichik Osiyo, O'rta Osiyo) xalqlarining falsafiy qarashlari bilan o'zviy bog'liq ekanligi ko'rsatib berilgan[3.338].

Beruniy aniqlashicha, hindlar tabiat kuchlarini ilohiylashtirib, olamdagi hamma mavjudot besh unsurdan iboratdir, - deydlar. Hindlar fikricha, ular: osmon (efir), olov, shamol, havo, suv va tuproqdir. Hindlarning badiiy-estetik tafakkurini, falsafiy qarashlarini yaxshi tushunish uchun Barohim, Noroyana, Mahodeva, Shankara, Rishi, Sidha, Muni kabi so'zlar- tushunchalarning ma'nolarini yaxshi bilib olish kerak. Bu tushunchalarning ma'nolari Beruniyning «Hindiston» kitobida «Mahluqotning jins va ismlari» bobida yaxshi ochib berilgan. «Hayulo -modda bilan undan yuqori turuvchi nafsoniy (bu erda bu so'z, nafs ruh ma'nosida keladi-F.B.) va ilohiy ma'nolar o'rtasida vositadir. Xayuloda dastlabki uch quvvat (rishi, sidha, muni) bo'lishi mumkin» shulardan rishi so'zini Beruniy bunday ta'riflaydi: «Inson bo'la turib, ilmlari sababli farishtalardan afzal va ortiq 13 bo'lgan hikmatshunoslar (donishmandlar) rishilar deb ataladi[2.203].

Shunisi e'tiborga molikki, Beruniy «Hindiston» asarida «Vasudeva to'g'risida va Bxarata urushlari» deb nomlangan qirq yettinchi bobida xalq poetik ijodi maxsullari bo'lgan doston, eposlarida tasvirlangan voqealar va shaxslarni ham tarixiy jihatdan xolis-ilmiy metodologiya asosida tekshiradi va tahlil qiladi. Beruniy fikricha, agar yer yuzini bir xil (mevasiz) daraxt yoki bir hil (erkak yoki urg'ochi) hayvon butunlay qoplab olsa, bu holda hayvonning ko'payishiga ham, daraxtning o'sishiga ham o'rin (joy) qolmaydi. Shu sababli dehqonlar ekinlarini o'toq qilib, keraksizini yulib

tashlaydi. Asalarilar ham o'z jinsidan bo'la turib, ishlaymay, kuwadagi asalni bekorga eb yotadiganlarini o'ldirib tashlaydi[2.203].

Beruniy fikricha, dehqon yoki bog'bon kabi, tabiatning o'zi ham xudi mana shunday ish qiladi. Ko'rinib turibdiki, Beruniy ingliz olimi Charlz Darvindan 800 yil avval tabiiy tanlanish qonuniyatini kashf etgan. Beruniy o'z fikrini bunday rivojlantiradi: «Lekin tabiat yaxshini yomondan ayirmasdan, hammasiga bir xilda ta'sir qilishi orqasida daraxtning barglarini to'kib, meva qilishdan qoldirib, quritadi 3.339].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Abu rayhon Beruniy nafaqat O'rta Osiyo ilm faniga balki, Hindiston ilm-faniga ham o'z hissasini qo'sha olgan va ilmni chegara bilmasdan tarqata olgan. Shuningdek, alloma o'z shaxsiy fikrlarini yozar ekan, ilmli insonlarni farishtaga ham qiyoslab o'tadi. U hind falsafasini chuqur o'rganib, uning yunon falsafasi biolan o'xshash tomonlari mavjudligini sezib qoladi va bu haqida to'liq asarda bayon etishga harakat qiladi. Demak, ilm aynan biror bir millat yoki yurt tanlamas ekan u jamiyat orasida tinimsiz o'sib borar va uni izlayotgan va uni qadrlayotgan kishilar orasida tezda yoyila borar ekan. Alloma o'z fikrlarida xalqlar orasidagi ilmni o'xshashliklarini sanashidan ham maqsad ilm joy tanlamasligini ko'rsatishdan iborat bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://zenodo.org/records/7806649/files/35-44.pdf?download=1>
2. <https://docx.uz/document/abu-rayhon-beruniyning-hindiston-asari-haqida-a413b654?lang=ru>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/abu-rayhon-beruniyning-hayoti-va-ijodi>